

**YURIDIK TEXNIKUMLARDA O‘QIGAN O‘QUVCHILARGA VAZIRLAR MAHKAMASINING KARORI ASOSIDA BERILADIGAN IMTIYOZLAR XUSUSIDA**

*Худойбердиев Шамил Джиохонгирович*

*Тошкент вилояти юридик техникуми ўқитувчиси*

**Annotatsiya:** Maqolada yuridik texnikumlarda o‘qigan o‘quvchilarga Vazirlar Mahkamasining karori asosida beriladigan imtiyozlar yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** Adliya, e‘lon, organlar, reytingi, TDYU, jamoatchilik.

Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi ta‘lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 10-iyundagi 359-son qaroriga muvofiq, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi ta‘lim muassasalarining o‘quv jarayonini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda yuridik texnikumlarning reytingini yuritish mexanizmini joriy etish orqali ularda ta‘lim sifatini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Quyidagilar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlari (keyingi o‘rinlarda — yuridik texnikumlar) reytingini aniqlash bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini tashkil qilish, reyting indikatorlari uchun ballarni hisoblash hamda reyting natijalarini e‘lon qilish tartibini nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlari reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomda ko‘rsatilgan.

Adliya organlari tomonidan yuridik texnikumlar bitiruvchilariga yo‘llanma berish bo‘yicha maxsus komissiya faoliyatini tashkil qilish, oliy ta‘lim tashkilotiga hujjatlarni topshirish, o‘qishga qabul qilish uchun suhbat o‘tkazish hamda qabulni rasmiylashtirish tartibini nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari bitiruvchilarini “yurisprudensiya” mutaxassisligi bo‘yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi oliy ta‘lim tashkilotlari bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomi mavjud

2. Belgilansinki, yuridik texnikumlarning, shu jumladan, quyidagi yo‘nalishlardagi faoliyatini qamrab oluvchi reytingi natijalari har yangi o‘quv yiliga qabul boshlangunga qadar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan Adliya vazirligi bilan birgalikda ularning rasmiy veb-saytlari orqali e‘lon qilinadi:

o‘quv va ilmiy-metodik faoliyat, shu jumladan, ta‘lim sifati;

reyting aniqlangan yilda nufuzli xalqaro va respublika fan olimpiadalari, sport musobaqalari va boshqa tanlovlarda g‘olib bo‘lgan (sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan)

yuridik texnikum o'quvchilari ulushi;

xorijiy pedagoglar, shuningdek, ilmiy darajali hamda chet tili va fanlarni bilish darajasi to'g'risidagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lgan asosiy shtatdagi pedagoglar va o'quvchilar ulushi;

ish bilan ta'minlangan bitiruvchilari va oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan o'quvchilari ulushi.

### 3. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o'rinlarda — TDYU) huzuridagi akademik litseyga (keyingi o'rinlarda — akademik litsey) o'qishga qabul qilish har yili 1-avgustga qadar Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlari orqali amalga oshiriladi, bunda test sinovlarini o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar ushbu maqsadlar uchun ajratiladigan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

akademik litseyga dars mashg'ulotlarini, xususan, onlayn rejimda o'tkazish uchun xorijiy mutaxassislar jalb qilinadi hamda ularga ish haqi miqdori TDYU tomonidan mustaqil belgilanadi;

akademik litseyda va yuridik texnikumlarda pedagog xodimlar tarkibida qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan lavozimlar bilan birgalikda kafedra mudiri, professor, dotsent lavozimlari ham joriy etiladi hamda ularning mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari akademik litseyda TDYU tomonidan, yuridik texnikumlarda esa Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi;

TDYU tomonidan tashkil etiladigan yoki muassis sifatida ishtirok etiladigan tijorat va notijorat tashkilotlarini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash, faoliyatini tashkil etish va doimiy ravishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda ularning ustav jamg'armasi va mulkini shakllantirish uchun TDYU Kengashi tomonidan belgilangan miqdorda budjetdan tashqari (shu jumladan, to'lov-kontrakt va tabaqalashtirilgan kontrakt) mablag'larni sarflashga ruxsat beriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

TDYU bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga sirtqi ta'lim shakli hamda ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga qabulni Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlari orqali amalga oshirish. Bunda, test sinovlari Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-apreldagi 261-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish uchun kirish test sinovlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

Respublikadagi oliy ta'lim tashkilotlarining buyurtmalariga ko'ra TDYU magistraturasida bazaviy oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan kadrlarni maqsadli tayyorlash uchun kirish sinovlarisiz magistraturaga qabul parametrlaridan tashqari

to'lov-kontrakt asosida qabul qilish, shuningdek, ushbu tashkilotlarga ularning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan kontrakt to'lovlarini amalga oshirish huquqini berish. Bunda, ushbu kadrlarga o'qishini tamomlaganidan so'ng buyurtma bergan oliy ta'lim tashkilotlarida shartnoma asosida uch yil davomida to'liq stavkada uzluksiz ishlab berish majburiyati yuklanadi.

5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi:

a) ikki oy muddatda:

akademik litsey va yuridik texnikumlarda mazkur qaror bilan joriy etilayotgan lavozimlarning razryadlari (bazaviy tarif stavkalari, maoshlari) hamda koeffitsiyentlari miqdorlari belgilanishini ta'minlasin;

Davlat test markazi bilan birgalikda akademik litseyga qabul qilish uchun test sinovlarini o'tkazish tartibini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

b) bir oy muddatda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni mazkur qarorga muvofiqlashtirsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qonunlarigamuvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qonunlariga muvofiq ba'zi qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri R.K. Davletov zimmasiga yuklansin.

### **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlari reytingini aniqlash tartibi to'g'risida umumiy tushunchalar.**

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlari (keyingi o'rinlarda — yuridik texnikumlar) reytingini (keyingi o'rinlarda — reyting) aniqlash tartibini belgilaydi.

2. Reyting O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda — Ta'lim inspeksiyasi) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi (keyingi o'rinlarda — Adliya vazirligi) bilan birgalikda har yili xolislik, oshkoralik va adolat tamoyillariga amal qilingan holda aniqlanadi.

3. Yuridik texnikumlar reytingini aniqlash ushbu Nizomda keltirilgan sxemaga muvofiq tashkil etiladi.

### **Reytingni aniqlashning maqsad va vazifalari**

4. Yuridik texnikumlar orasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, ularning ilmiy-pedagogik faoliyati darajasi va sifatini oshirishni rag'batlantirish, pedagog xodimlarning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish, o'qitish sifati bo'yicha xalqaro mezon va standartlarga muvofiq yuqori ko'rsatkichlarga erishishga hamda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga

zamin yaratish reytingni aniqlashning maqsadi hisoblanadi.

5. Quyidagilar reytingni aniqlashning vazifalari hisoblanadi:

yuridik texnikumlar faoliyatini muntazam takomillashtirib borish asosida mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash;

yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;

yuridik texnikumlarda ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifati, ulardagi ilmiy va o'quv-tarbiya jarayonlari hamda imkoniyatlar haqida tegishli davlat organlari, kadrlar buyurtmachilari va keng jamoatchilikni xolis axborot bilan ta'minlash;

yuridik texnikumlarning dunyodagi reytingi yuqori bo'lgan ta'lim muassasalari bilan hamkorligini ta'minlash hamda ularning xalqaro standartlarga muvofiq yuqori ko'rsatkichlarga erishishiga ko'maklashish.

### **Reytingni aniqlashga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirish**

6. Reytingni aniqlashga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirish Ta'lim inspeksiyasi tomonidan hisobot yilidan keyingi yilning birinchi choragida amalga oshiriladi.

7. Reytingni aniqlashga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirish uchun:

a) fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) va fan doktori, fan doktori (DSc) ilmiy darajalariga hamda ilmiy darajaga ega bo'lmay dotsent yoki professor ilmiy unvonlariga tasdiqlangan yuridik texnikumlar pedagog xodimlari tomonidan himoya qilingan dissertatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan;

b) yuridik texnikum bitiruvchilarining ishga joylashganligi to'g'risidagi ma'lumotlar — O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan;

v) oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilingan yuridik texnikum bitiruvchilarining soni to'g'risidagi ma'lumotlar:

davlat oliy ta'lim muassasalariga qabul imtihonlarida qatnashib o'qishga tavsiya etilgan bitiruvchilar soni bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan;

respublikadagi nodavlat hamda xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va ularning filiallariga o'qishga qabul qilingan bitiruvchilar soni bo'yicha — mazkur oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan;

qo'shma ta'lim dasturlari va xorijiy oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilingan bitiruvchilar soni bo'yicha — TDYU tomonidan;

g) chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi milliy sertifikatga ega bo'lgan o'quvchilar va o'qituvchilar soni bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan;

d) boshqa indikatorlar bo'yicha ma'lumotlar — TDYU tomonidan Ta'lim

inspeksiyasiga taqdim etiladi.

8. Ta'lim inspeksiyasi tomonidan ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida tegishli namunadagi jadvallar ishlab chiqiladi va reyting aniqlanayotgan yilning 10-dekabriga qadar ushbu Nizomning qonuniy bandida ko'rsatilgan tashkilotlarga yetkaziladi.

9. Yuridik texnikumlarning reytingni aniqlashga oid ma'lumotlar asoslovchi hujjatlari bilan birgalikda 1-fevralga qadar mazkur Nizomning qonuniy bandida ko'rsatilgan tashkilotlar tomonidan Ta'lim inspeksiyasining rasmiy veb-saytidagi maxsus platformaga (keyingi o'rinlarda — maxsus platforma) joylashtiriladi. Ta'lim inspeksiyasi tomonidan ushbu tashkilotlarga maxsus platformaga kirish uchun 25-yanvarga qadar login va parol beriladi.

Asoslovchi hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, ma'lumotlar reytingni hisoblashda inobatga olinmaydi.

10. Ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlash maqsadida Ta'lim inspeksiyasi tomonidan ushbu ma'lumotlar 1-aprelga qadar tahlil qilinadi hamda dastlabki o'rganilgan ma'lumotlar tanishib chiqish va tasdiqlash uchun 10-aprelga qadar maxsus platformaga joylashtiriladi.

11. Ma'lumotlar yuridik texnikum direktori imzosi hamda Toshkent davlat yuridik universitetining (keyingi o'rinlarda — TDYU) mas'ul prorektori imzosi bilan tasdiqlangan holda 1-mayga qadar maxsus platformaga joylashtiriladi. Qo'shimcha kiritiladigan reytingni aniqlashga oid ma'lumotlar asoslovchi hujjatlar bilan birgalikda taqdim etilganda hisobga olinadi.

Maxsus platforma 1-maydan keyin yopib qo'yiladi va unga qo'shimcha ma'lumotni joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Maxsus platformaga joylashtirilgan ma'lumotlarni asoslovchi hujjatlarning haqiqiyligiga shubha tug'ilgan taqdirda, Ta'lim inspeksiyasi tomonidan hujjatning asli so'rab olinishi mumkin.

Yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlar reytingni hisoblashda inobatga olinmaydi.

12. Reytingni aniqlash jarayonida tanlash asosida belgilangan soha mutaxassisliklari bo'yicha yuridik texnikum o'quvchilari uchun mutaxassislik fanlaridan test sinovlari shaklida nazorat ishlari o'tkaziladi.

Nazorat ishlari o'tkaziladigan soha mutaxassisliklari va fanlar ro'yxati nazorat ishlarini o'tkazish muddatidan kamida bir oy oldin Ta'lim inspeksiyasi hamda Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

13. Test topshiriqlari o'quvchilar uchun ikkita mutaxassislik fanidan — 20 tadan jami 40 ta savoldan iborat bo'ladi.

14. Test sinovlarida har bir test savoli uchun 2 daqiqadan, jami 80 daqiqa vaqt beriladi. Har bir to'g'ri bajarilgan test savoli 2,5 ball bilan baholanadi.

15. Nazorat ishlari o'tkaziladigan o'quvchilar guruhlariga Ta'lim inspeksiyasi

tomonidan aniqlanadi va nazorat ishlari o‘tkazilishidan kamida uch kun oldin yuridik texnikumlarga ma’lum qilinadi.

Nazorat ishlarida tanlangan soha mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quvchilarning kamida 30 foizi ishtirok etishi shart.

Nazorat ishlari har o‘quv yili oxirida o‘tkaziladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ахмедшаева М. Давлат механизми ва ҳокимиятлар бўлиниши. Ук,ув кулланма. - Т.: ТДЮИ, 2005.
2. Ахмедшаева М., Нажимов М. Ҳук;ук нима? - Т.: ТДЮИ, 2003.
3. Давлат ва ҳуқуқ, назарияси / масъул муҳ,аррирлар Ҳ.,Б. Бобоев, Ҳ.Т. Одилк,ориев. - Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2000.
4. Исламов З. Общество. Государство. Право. (Вопросы теории). - Т.: Адолат, 2001.

### **Saytlar:**

5. Lex.uz